



ВАЗОРАТИ МАОРИФ ВА ИЛМИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН  
ДОНИШКАДАИ ОМУЪЗГОРИИ ТОҶИКИСТОН ДАР ШАҲРИ ПАНҶАКЕНТ  
МИНИСТЕРСТВО ОБРАЗОВАНИЯ И НАУКИ РЕСПУБЛИКИ ТАДЖИКИСТАН  
ТАДЖИККИЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ В Г. ПЕНДЖИКЕНТ



# ПАЁМИ ДОНИШКАДА ВЕСТНИК ИНСТИТУТА HERALD OF INSTITUTE

НАШРИ МАХСУС / СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК / SPECIAL EDITION

БО ҲАМКОРӢ БО ТАХРИРИЯТИ МАҚАЛЛАҲОИ ИЛМӢ-  
ПАЖӢҲИШИИ “АНВОРИ ИЛМ” ВА “ТАФАККУРИ ТАЪРИХ”

СОВМЕСТНО С РЕДАКЦИЕЙ НАУЧНО-  
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ ЖУРНАЛОВ «АНВОРИ ИЛМ» И  
«ТАФАККУРИ ТАЪРИХ»

IN COLLABORATION WITH THE EDITORIAL STAFF OF THE  
RESEARCH JOURNALS "ANVORI ILM" AND "TAFAKKURI  
TARIKH"



**ВАЗОРАТИ МАОРИФ ВА ИЛМИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН  
ДОНИШКАДАИ ОМУЌЗОРИИ ТОҶИКИСТОН  
ДАР ШАҲРИ ПАНҶАКЕНТ**

---



**МАВОДИ**

**анҷумани илмӣ-амалии байналмилалӣ “Масоили мубрами таърих, фарҳанг, таърихнигорӣ ва манбаъшиносии халқҳои Осиёи Миёна”, дар Донишкадаи омӯзгории Тоҷикистон дар шаҳри Панҷакент, ба муносибати 60 солагии доктори фанҳои таърих, профессор Воҳидов Шодмон Ҳусейнович**

\*\*\*

**МАТЕРИАЛЫ**

**научно-практической международной конференции “Актуальные проблемы истории, истории культуры, историографии и источниковедения истории народов Средней Азии” в Таджикском педагогическом институте в городе Пенджикент, в честь 60-летия доктора исторических наук, профессора Вохидова Шодмона Хусейновича**

\*\*\*

**MATERIALS**

**scientific-practical international conference "Actual problems of history, cultural history, historiography and source study of the history of the peoples of Central Asia" at the Tajik Pedagogical Institute in the city of Penjikent, in honor of the 60th anniversary of Doctor of Historical Sciences, Professor Vohidov Shodmon Khuseinovich**

**Панҷакент - 2021**

**МАВОДИ** анчумани илмӣ-амалии байналмилалӣ “Масоили мубрами таърих, фарҳанг, таърихнигорӣ ва манбаъшиносии халқҳои Осиёи Миёна”, дар Донишкадаи омӯзгории Тоҷикистон дар шаҳри Панҷакент, ба муносибати 60 солагии доктори фанҳои таърих, профессор Воҳидов Шодмон Ҳусейнович – Панҷакент, 2021. – 884 с.

#### **Ҳайати таҳрирӣ/Редакционная коллегия:**

Ансорӣ М.Қ. – раис, Аханов Б.Ф. (Қазоқистон), Петрусеевич А.А., Эркинов А. С., Пулатов М.Э., (Ўзбекистон), Воҳидов Ш.Х. (муҳаррири масъул), Шарифова Г.Х. (муовини раис ва котиби масъул), Абдуллоев Ш. У., Мақсудов З.О., Ансорӣ М.М., Комилов А., Исроилов С., Худойназаров М., Сирочзода Ф., Салихов Н., Турсунов Н., Ғаффоров Ш. С. Холиқова Р.Э. Эшов Б.(Ўзбекистон)

#### **Муқарризон:**

Қурбонов Ш., номзади улуми таърих, профессор (Тоҷикистон)  
Турсунов С. доктори улуми таърих, профессор (Ўзбекистон)  
Холиқова Р., доктори улуми таърих, профессор (Ўзбекистон)

Баъзе фикр ва хулосаҳои дар маҷмӯа омада бо нуқтаи назари таҳририят созгор наомаданаш мумкин аст. Барои дурустии иқтибос, ҳавола ва пайнавиштҳо дараҷаи илмӣ, услуб ва баёни мақолаҳо муаллифҳо масъуланд.

Мнение редколлегии не всегда совпадает с мнением авторов. За достоверность цитат и ссылок, научный уровень, стилистику статей ответственны авторы.

The opinion of the editorial board does not always coincide with the opinion of the authors. Authors are responsible for the reliability of citations and references, the scientific level, and the style of articles.

Дар асоси қарори Шӯрои олимони Донишкадаи омӯзгории Тоҷикистон дар шаҳри Панҷакент ба нашр тавсия дода шуд (суратчаласаи № 10 аз 28 декабри соли 2021).

© ДОТП, “Паёми донишкада”, “Анвори илм”,  
“Тафаккури таърих” соли 2021.

9. Махмудова Н.Б. Историко-источниковедческий обзор отчетов ревизии сенатора К.К.Палена. // Метаморфозы истории. – М.2019.

\*\*\*

## SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA BUXORODA MADANIY HAYOT

**Ergashev Avaz Amonovich**  
**O'zbekiston. Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi**

Buxoro – qadimdan, asrlar davomida Sharqning ilm-u ma'rifat va madaniyat markazlaridan biri sifatida butun dunyoga dong'i ketgan qadimiy shahardir. Buxoro o'rta asrlarda ham Movarounnahrning yirik savdo-sotiq, hunarmandchilik va ma'muriy markazlaridan biri bo'lib, Yaqin va O'rta Sharqni Hindiston va Xitoy bilan bog'lagan qadimiy xalqaro savdo yo'li – Buyuk Ipak yo'li tutashgan hududda joylashgan. Bu diyorda o'z davrining mashhur mutaffakkir olim va adiblari Ismoiy Somoniy, Abu Ali Ibn Sino, Narshaxiy, Rudakiy, Daqiqiy, Xoja Bahouddin Naqshbandiy va boshqalar yashab ijod etganlar. Buxoro madaniyati asrlar osha sayqallashib, o'zining milliyligini saqlab kelayotgan o'ziga xos tamaddun javohiridir. Shunday bo'lsada mazkur diyora o'z tarixi jarayonida O'rta Osiyoda qad ko'targan shaharlar singari bir necha bor tashqi dushman hujumiga bardosh bergan istilochilar asoratiga tushib, qonli janglar maydoniga va ozodlik qo'zg'olonlari markaziga aylangan. Inqirozga yuz tutib vayron bo'lgan bo'lsada, ammo o'z joyidan bir qarich ham siljmay o'z salobatini qayta-qayta tiklab, obod qilib kelmoqda.

O'lkamiz tarixi, madaniyati nechog'lik ko'hna va buyukligini bir qator arxeolog olimlar ham bir necha bor isbotlashgan. Misol uchun 60-yillarning oxiriga kelib akademik Ya.G'ulomov rahbarligida maxsus arxeologik ekspeditsiya tashkil etilib, u Buxoro shahri hududida ko'p yillarga mo'ljallangan muntazam arxeologik qazish ishlarini uyushtirdi. Dastlab 1970-1974-yillarda so'ngra 1977-1980-yillarda Buxoroning eski shahar qismidagi bir necha joylarda keng ko'lamli arxeologik qazishmalar o'tkazilib, mazkur hududdan 2500 yillik tarixga ega 14-20 metr qalinlikdagi madaniy qatlamlarning ochib o'rganilganligi bu diyorning naqadar qadimiyligining isboti bo'ldi<sup>1</sup>. Shunday bo'lsada Buxoroda Podsho Rossiyasi mustamlakachiligi, xususan, Sovet mustamlakachiligi davrida o'ziga xos madaniyatning rivojlanishiga turli ta'sirlar, keyinchalik orada ma'lum vaqt uzilishlar ro'y berdi. Bu qonli mustamlaka tizimi o'lkada shakllangan asrlar davomida xalqning ong-u shuuriga singgan madaniyat tomiriga bolta urdi. Buxoroga qizil armiya tomonidan qilingan bosqin natijasida 1920-yil 2-sentyabrda amirlik tuzumi ag'darib tashlandi va yangi respublika boshqaruv tizimi o'rnatildi. Aslida bu xalqaro huquq normalarining bolsheviklar tomonidan qo'pol ravishda buzilishi va mamlakatda mustabid sovet tuzumining majburan o'rnatilishi edi<sup>2</sup>. Amirlikda yuz yuz bergan bunday voqealar ushbu zaminda yashab kelayotgan o'zbek, tojik, turkmanlar qisman qozoq va qoraqalpoq xalqlarining umummilliy, madaniy hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Muqaddas Buxoro diyoridagi asrlar osha saqlanib kelayotgan osr-u atiqalar, tarixiy-me'moriy obidalar, madaniy yodgorliklar oyoqosti qilinib, vahshiylarcha talandi. Shaharda qad ko'targan Ismoil Somoniy maqbarasi (IX-XI-asrlar), Minorai Kalon (XII asr), Mag'oki Attori masjidi (XII asr), Chashmai Ayub (XII-XIV asrlar), Toqi zargaron, Toqi telpakfurushon, Toqi sarrofon ansambllari (XVI asr), Ark saroyi (mil.avv.IV – III –asrlar –XX –asr boshi), Ulug'bek madrasasi (1417), Kalon jome masjidi (XVI asr), ayniqsa Labi hovuz kabi dunyoga mashhur noyob tarixiy, madaniy inshootlarga misli ko'rilmagan darajada zarar yetkazildi, mazkur qadamjolar odat va an'analarga darz ketdi.

Shunday ekan, Buxoroning shonli tarixida sovet davrining o'lkada yuritgan madaniy, siyosiy-iqtisodiy va eng asosiysi mafkuraviy siyosatiga to'xtalib o'tmaslikning iloji yo'qdir. Bu

<sup>1</sup> Мухаммаджонов А. Қадимги Бухоро (Археологик лавҳалар ва тарих). – Тошкент: “Фан”, 1991.-Б.6.

<sup>2</sup> Ражабов Қ, Иноятов С. Бухоро тарихи. – Тошкент: Tafakkur, 2016.-Б.34.

davrdagi amalga oshirilgan shaklan milliy mazmunan kommunistik siyosatning ta'siri o'lkada mavjud barcha sohalarga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. To'g'ri oradan biroz vaqt o'tgach 1920-1921-yillarda BXSР tashkil etilgandan so'ng o'lkada turli ijobiy, amaliy ishlar amalga oshirish uchun ko'plab harakatlar qilindi, xususan, shahar xo'jaligini takomillashtirish bo'yicha, uy-joy qurilishi bo'yicha ko'p ishlar qilingan. 1921-yilda BXSР da tashkil etilgan "Tarixi anjuman" jamiyati o'lkadagi qadimgi obidalarni muhofaza qilish, xalq amaliy san'atini rivojlantirish, fan tarixiga doir qo'lyozmalarni yig'ilish, arxeologik ashyolar va xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plab tadqiq etish kabi bir qator amaliy ishlar amalga tadbiiq etilgan<sup>1</sup>. Shuningdek, yozuvchi, ma'rifatparvar olimlardan Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Otajon Payrov Sulaymoniy, Abduvohid Burhonov, Salimbek Salimiy, Sharifjon Maxdum, Musajon Saidjonov, Qori Yo'ldosh Po'latov, Siddiqxon (Hashmat) (1885-1910- yillarda Buxoro amiri bo'lgan Amir Abdulahadning ukasi)lar o'sha davr ziyolilar muhitining a'zolari edilar. Shu bilan birga, Buxoro ilmiy jamoasi ekspeditsiyalar tashkil etgan. Buxorodagi 3 ta shaxsiy kutubxonada saqlangan sharqshunoslik, tarix va adabiyotga oid qo'lyozma kitoblarni to'plaganlar. Birgina Sharifjon Mahmud kutubxonasidan 300 jildga yaqin fors tojik va turkey tillardagi noyob qo'lyozma asarlar ro'yxatga olingan. Jamiyat to'plagan qo'lyozma asarlar orasida tarixchi Narshaxiyning "Tarixi Buxoro" ("Buxoro tarixi"), Ahmad Donishning "Navodir-ul vaqoye" ("Nodir voqealar") asarlari bore di. Jamiyatning "Anjumani tarix" bo'limi "Buxoro arki tarixining qo'lyozmasi" kitobini tayyorlaganlar. Buxoro ilmiy jamoasi to'plagan materiallar O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi.

BXSРda bir qator vaqtli matbuot, Buxoro axbori gazetasi, Buxoro haqiqati nashrlari katta ahamiyat kasb etgan. Buxoro axbori BXSР hukumati gazetasi bo'lib, mazkur gazeta 3000 nusxada nashr qilingan unda Buxoro jadidlarining milliy mstaqillikka erishish, mamlakatda burjua demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishni targ'ib qilgan nashr hisoblanadi<sup>2</sup>. Buxoro axbori gazetasida Buxoroda vijdon erkinligini ta'minlash, milliy hukumat va milliy qurolli kuchlarga tayanish rus qizil qo'shinlarini Buxoro hududidan olib chiqib ketish va boshqa siyosiy hamda iqtisodiy masalalar ko'tarildi. Gazeta 1923-yil iyulda sovet hokimiyati tomonidan taqiqlangan. Fazetaga Fitrat, Cho'lpon, Said Ahroriy, Ziyo Usmoniy, Qori Yo'ldosh va boshqalar muharrirlik qilishgan. Gazetadagi bunday senzuraning o'rnatilishi ham o'sha davr mafkurasiga nisbatan amalga oshirilgan kuchli ta'sir hisoblanadi.

Shunday bo'lsada Buxoroda sovetlar davrida shaklan milliy, mazmunan sotsialistik islohotlar, madaniy, amaliy ishlar amalga oshirildi. Bu davrda qadimiy Buxoroda san'atning rivojlanishiga ham atroflicha e'tibor berildi. Ayniqsa Buxoro kinosining yaratilishi katta voqea bo'ldi. 1924-yil O'rta Osiyodagi birinchi kino tashkilot, BXSР bilan Leningrad "Sevzapkino" tashkiloti o'rtasidagi shartnoma asosida shu yilning 21-aprelida tashkil qilindi. Bu tashkilot badiiy-tashviiqiy, ijtimoiy-xronikal filmlar ishlab chiqarish, ularni ijaraga olish, sotib olish, kinoteatrlar qurish va ishlatish kabi masalalar bilan shug'ullangan. 1925-yilda Rus va Buxoro kinomotografiyasi "Sevzapkino" bilan hamkorlikda Buxoroda suratga olingan "O'lim minorasi" kinosi ekranlarga chiqarilgan.

Xullas, sovet hokimiyati madaniy islohotlar asosida Buxoro zaminidagi asrlarga teng madaniyatga putur yetkazib, o'zining kommunizm jamiyatini qurish yo'lidagi bosqichlarni birin -ketin amalga oshira bordi. Shunday bo'lsada, o'lmas madaniyat zarchashmalarga ziyon yetmay, rivojlanishda davom etdi.

\*\*\*

<sup>1</sup> To'rayev H. Buxoro tarixi. – Buxoro: "Durdona", 2020.-B.222.

<sup>2</sup> To'rayev H. Buxoro tarixi. – Buxoro: "Durdona", 2020.-B.223.

**МАСОЛИ МУБРАМИ ТАЪРИХ, ТАЪРИХИ МАДАНИЯТ, ТАЪРИХНИГОРӢ ВА МАНБАЪШИНОСИИ ТАЪРИХИ ХАЛҚҲОИ ОСИЁИ МИЁНА/ АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИСТОРИИ, ИСТОРИИ КУЛЬТУРЫ, ИСТОРИОГРАФИИ И ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЯ ИСТОРИИ НАРОДОВСРЕДНЕЙ АЗИИ/ TOPICAL PROBLEMS OF THE HISTORY, CULTURAL HISTORY, HISTORIOGRAPHY AND SOURCE STUDIES OF THE HISTORY OF THE PEOPLE OF CENTRAL ASIA**

205.	Шодиева Солиевна Шахло	“ЁШ ТУРКЛАР” ИНҚИЛОБИДАН СЎНГ БУХОРОДА УСМОНИЙЛАР ТАЪСИРИНИНГ ОШИБ БОРИШИДА МАТБУОТ НАШРЛАРИНИНГ ЎРНИ	823
206.	Шодизода Часурҷони Муллоқурбон,	ҲУНАРМАНДИИ САРАЗМИЁН – НАМУНАИ БАҶРАСТАИ МАДАНИЯТИ МОДДИИ ХАЛҚИ ТОҶИК	827
207.	Шодмонова Гулизор Фарход қизи	ЎРТА ОСИЁДА ҲАРБИЙ САНЪАТНИНГ ТАРАҚҚИЁТИ ТАРИХИ (қадимги ва илк ўрта асрлар даври)	829
208.	Шоев Иззатулло,	РЕФОРМА УПРАВЛЕНИЯ ТУРКЕСТАНСКИМ ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРСТВОМ В НАЧАЛЕ XX В	832
209.	Ergashev Amonovich Avaz	SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA BUXORODA MADANIY HAYOT	836
210.	Эркаев Сафар Абдулхайрович, Алишер Аминов, Истамкулов Джамшед, Курбанов Самандар Искандарович,	АЗ ТАЪРИХИ ИЛМИ ТИББИ ҚАДИМАИ ФОРСУ ТОҶИК ВА ТАБОБАТИИ МАРДУМИИ ТОҶИКОН	838
211.	Эркаева Нигора Сафаровна, Шоев Алмосшо Набатович Эркаев Сафар Абдулхайрович	АЗ ТАЪРИХИ ТЕХНОЛОГИЯИ ТАЙЁР КАРДАНИ ДОРУҲО ДАР АСРҲОИ МИЁНА	844
212.	Эшмӯминов Озодбек Зиёдулла ўғли, Эрмуратов Эргаш Чоршанби ўғли,	СУРХОНДАРЁ ВОҲАСИ АҲОЛИСИ ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАРИ (1930-1950ЙЙ.)	847
213.	Юлдошева Бибиражаб Миржоновна	БУХОРО ШАҲАР МАДАНИЯТИНИНГ ЯРАТУВЧИСИ ЗАРАФШОН ДАРЁСИ ЭКОТАҲДИД ҚУРШОВИДА	850
214.	Юсупова Мусабе Исломовна,	ИНЪИКОСИ ВОҶЕАҲОИ ТАЪРИХИ ДАР НАҚЛҲОИ ФОЛКЛОРИИ ДОСТИНИ «ЛЕНИНОБОД»-И РАҲИМ ҶАЛИЛ ВА МУҲИДДИН АМИНЗОДА	855
215.	Юсупова М.Ў. -	БУХОРО ВАҲАСИ МАВСУМИЙ МАРОСИМ ТАОМЛАРИ ВА УЛАРИНИНГ ТАЛҚИНИ	859
216.	Янгибоева Дилноза Ўктамовна	МАДАНИЙ ВА ТАРИХИЙ МЕРОС ТАДҚИҚОТЧИСИ	861